


# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022 - yil 1 - aprel holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*

<b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>	<b>112 710</b> 107,5 %
<b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>	<b>108 106</b> 108,2 %
<b>Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022 - yilda)</b>	<b>3 817</b> 81,3 %

Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga shirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4

81 548



Mas'uliyati cheklangan  
jamiyatlar

3 552



Oilaviy korxonalar

160



Unitar korxonalar

12 076



Xususiy korxonalar

153



Aksiyadorlik jamiyatlari


360



Boshqa korxonalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - mart oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - mart oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,5 foizga oshdi**




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 – yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,4** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




**10,3** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**12,4** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**4** foizga kamaydi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **11,2** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar










O'tgan yilga nisbatan **9,0** foizga kamaydi



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - aprel holatiga ko'ra 3 752 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104 taga yoki 2,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 552 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 118 taga yoki 3,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022 - yilning yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 134 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga yoki 6,3% ga kamayganini ko'rish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni**  
(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 yil 1 - aprel holatiga ko'ra 8 370 tani tashkil etib, ulardan 8 120 tasi yoki 96,8 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,9 mingtaga yoki 12,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - mart oylarida 340 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-mart oylarida, birlikda)




**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	<b>Jami</b>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 458	593	865
Qozog'iston Respublikasi	807	313	494
Ozarbayjon Respublikasi	177	59	118
Ukraina Respublikasi	138	65	73
Qirg'iz Respublikasi	142	52	90
Tojikiston Respublikasi	101	39	62
Turkmaniston Respublikasi	62	22	40
Belarus Respublikasi	71	34	37
Armaniston Respublikasi	29	16	13
Moldova Respublikasi	16	5	11

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 17,0 %, Qozog'iston Respublikasi 9,0 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,0 %, Qirg'iz Respublikasi 1,0 % va Tojikiston Respublikalari 1,0 % ga to'g'ri kelmoqda.

# Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Toshkent shahri</b>	<b>8 120</b>	<b>3 060</b>	<b>5 060</b>
tumanlar:			
<b>Uchtepa</b>	<b>276</b>	<b>87</b>	<b>189</b>
<b>Bektemir</b>	<b>187</b>	<b>95</b>	<b>92</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>970</b>	<b>385</b>	<b>585</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>1 062</b>	<b>406</b>	<b>656</b>
<b>Mirobod</b>	<b>1 400</b>	<b>421</b>	<b>979</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>566</b>	<b>252</b>	<b>314</b>
<b>Olmazor</b>	<b>429</b>	<b>210</b>	<b>219</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>285</b>	<b>125</b>	<b>160</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>1 319</b>	<b>436</b>	<b>883</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>654</b>	<b>285</b>	<b>369</b>
<b>Yangihayot</b>	<b>111</b>	<b>53</b>	<b>58</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>861</b>	<b>305</b>	<b>556</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 400 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 319 ta (16,2 %), Mirzo Ulug'bek – 1 062 ta (13,0 % hamda Yunusobod tumanlarida 970 tani (11,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Uchtepa – 276 ta (3,4 %), Bektemir 187 ta (2,3 %) hamda Yangihayot 111 tani (1,4 %) tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022 - yil 1 - aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,8 %), Yunusobod – (12,6 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,8 %), Yakkasaroy – (8,5 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (8,1 %), Sirg'ali – (5,1 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,1 %) tashkil etgan.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

2022-yil mart oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,8 %), Yunusobod – (11,8 %), Mirzo Ulug'bek – (10,9 %), Olmazor – (9,4 %), Shayxontohur – (9,4 %), Yashnobod – (9,2 %), Uchtepa – (8,6 %), Mirobod – (8,1 %), Yakkasaroy – (7,6 %), Sirg'ali – (6,4 %), Yangihayot (3,1 %) hamda Bektemir – (2,7 %) tumanlarida tashkil etgan.






2022 - yilning yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (17,1 %), Yashnobod – (13,4 %), Yunusobod – (11,0 %), Uchtepa – (11,0 %), Olmazor – (8,5 %), Yangihayot – (8,5 %), Sirg'ali – (7,3 %), Mirzo Ulug'bek – (6,1 %), Yakkasaroy – (6,1 %), Chilonzor – (3,7 %), Mirobod – (2,1 %) hamda Bektemir tumanlarida (4,9 %) ni tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika org10anlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**tel.: 71 203-88-31**